



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 11 - avgust

VI-68-145-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Tumanda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini hamda fuqarolar xafvsizligini ta'minlash borasida 2022-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribosari I.Raupovning hisoboti to'g'risida

Tumanda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini hamda fuqarolar xafvsizligini ta'minlash borasida 2022-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribosari I.Raupovning hisobotini tinglab "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish sakkizinch sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini hamda fuqarolar xafvsizligini ta'minlash borasida 2022-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rribosari I.Raupovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Otamurodov, I.Raupov)larga:

jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini samarali boshqarish choralarini ko'rish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta'minlash, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni

ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

voyaga yetmaganlar va yoshlar, ayniqsa, mahallalarda manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbazarliklarning oldini olish;

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish, yo‘l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklowlarga rioya etilishini nazorat qilish;

ishsizlar, xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va huquqbazarliklarni muntazam tahlil qilish asosida ularning kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlab, jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan maqsadli choralarini amalga oshirish;

jinoyatlarning ayrim turlari oshgan hududlardagi kriminogen vaziyatni tanqidiy tahlil qilgan holda jinoyatlarning soni ko‘payishi sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilishga qaratilgan aniq choralarini kuchaytirish vazifalari yuklatilsin.

3.Tuman prokururasi (S.Saidov), Jinoyat ishlari bo‘yicha Bulung‘ur tumani sudi raisi (G‘.Negmatov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Otamurodov), tuman hokimining o‘rinbosari (N.Mamadiyarova), tuman Mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (A.Shodmonov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (K.Gapparov) ishsizlar, voyaga yetmaganlar, yoshlar hamda xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilik ko‘proq bo‘lgan mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha uchrashuvlar hamda sayyor qabullar tashkil etib borish ishlarini kuchaytirsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (D.Xabibullayev), tuman xalq ta’limi bo‘limi (Z.Aliqulova), Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi (A.To‘rayev), tumandagi kasb-hunar maktablari va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda:

yoshlar, shu jumladan voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirish;

jinoyat sodir etishga moyil, profilaktik hisobda turgan, tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlar, notinch oilalar farzandlari va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan doimiy suhbatlar o‘tkazish choralarini ko‘rish topshirilsin.

5. “Bulung‘ur hayoti” gazetasi bosh muharriri (G‘.O‘rolov) tuman hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish yuzasidan olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarni yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov